ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Kelib tushdi: 18.03.2026 · Qabul qilindi: 19.05.2026 · Nashr etildi: 30.06.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/320gs132

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
MILLIY MADANIYAT JURNALI, 2 (2), 2026
www.jnculture.uz

Bastakorlik ijodi tarixi va uning o‘zbek maqom san’ati taraqqiyotidagi o‘rni

(The History of Composer Creativity and its Role
in the Development of Uzbek Maqom Art)

Dilovar Qodirova

Department of Music Theory
Bukhara Specialized School of Arts
Alpomish Street, 45A
Uzbekistan/Bukhara
E-mail: dilovarqodirova.uz@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek milliy musiqa madaniyatida bastakorlik ijodining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti, nazariy asoslari va milliy maqom san’ati rivojidagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada bastakorlik san’atining og‘zaki an’analar bilan bog‘liq xususiyatlari, maqom ijodchiligidagi o‘rni hamda milliy musiqiy tafakkurning shakllanishidagi ahamiyati yoritilgan. Abdurauf Fitrat, Ishoq Rajabov, Otanazar Matyoqubov va Ravshan Yunusovning ilmiy qarashlari asosida bastakorlik an’analari, maqom tizimining tarixiy rivojlanishi, ustoz-shogird maktabi va milliy musiqiy merosning davomiyligi qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, bastakor va kompozitor tushunchalarining o‘ziga xos jihatlari, bastakorlarning milliy musiqa madaniyatini saqlash va boyitishdagi xizmatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari bastakorlik ijodini o‘rganish milliy musiqa tarixi va maqomshunoslik sohasidagi ilmiy izlanishlarni boyitish, an’anaviy ijrochilik merosini asrash hamda uni zamonaviy musiqa ta’limi jarayoniga samarali tatbiq etishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi hamda milliy musiqiy qadriyatlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishini asoslaydi. Ushbu tadqiqot natijalari milliy bastakorlik san’atini chuqurroq o‘rganish, uning ilmiy asoslarini takomillashtirish va kelgusi tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: bastakorlik, maqom, maqomot, Shashmaqom, milliy musiqa, musiqiy meros, ijodkorlik, ustoz-shogird an’anasi, mumtoz musiqa.

Abstract

This article provides a scientific analysis of the formation, historical development, theoretical foundations, and role of composer creativity in the development of the national maqom art within Uzbek national musical culture. The study examines the characteristics of composer creativity associated with the oral

tradition, its significance in maqom creation, and its contribution to the formation of national musical thinking. Based on the scholarly views of Abdurauf Fitrat, Ishaq Rajabov, Otanazar Matyoqubov, and Ravshan Yunusov, the article presents a comparative analysis of composer traditions, the historical development of the maqom system, the master–apprentice school, and the continuity of the national musical heritage. Furthermore, the specific features of the concepts of “bastakor” and “composer” and the contribution of composers to preserving and enriching the national musical culture are revealed. The research findings demonstrate that the study of composer creativity has significant theoretical and practical value for the development of the history of national music, maqom studies, preservation of traditional performance heritage, and its effective integration into modern music education. The results may serve as an important scientific basis for further research on the national composer tradition and the improvement of its theoretical foundations.

Keywords: composer creativity, maqom, maqomat, Shashmaqom, national music, musical heritage, creativity, master–apprentice tradition, classical music.

Аннотация

В данной статье проведён научный анализ становления, исторического развития, теоретических основ композиторского творчества в узбекской национальной музыкальной культуре, а также его роли в развитии национального искусства макома. Освещены особенности композиторского искусства, связанные с устной традицией, его место в развитии искусства макома и значение в формировании национального музыкального мышления. На основе научных взглядов Абдурауфа Фитрата, Исхака Раджабова, Отаназара Матякубова и Равшана Юнусова выполнен сравнительный анализ композиторских традиций, исторического развития системы макомов, школы «устоз–шогирд» и преемственности национального музыкального наследия. Кроме того, раскрыты особенности понятий «бастакор» и «композитор», а также вклад бастакоров в сохранение и развитие национальной музыкальной культуры. Результаты исследования показывают, что изучение композиторского творчества имеет важное теоретическое и практическое значение для развития истории национальной музыки, макомоведения, сохранения традиционного исполнительского наследия и его эффективного внедрения в современное музыкальное образование. Полученные результаты представляют научную ценность для дальнейших исследований национального композиторского искусства и совершенствования его теоретических основ.

Ключевые слова: бастакорское творчество, маком, макомат, Шашмаком, национальная музыка, музыкальное наследие, творчество, традиция «устоз–шогирд», классическая музыка.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik musiqiy madaniyatida bastakorlik ijodi alohida ahamiyatga ega bo‘lgan badiiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Bastakorlik nafaqat yangi musiqiy asarlar yaratish san’ati, balki xalqning estetik tafakkuri, ma’naviy dunyosi va milliy qadriyatlarini ifoda etuvchi muhim ijodiy faoliyat turidir. Asrlar davomida shakllangan milliy musiqiy meros tarkibida maqomlar, xalq qo‘shiqlari, katta ashula, dostonchilik va boshqa janrlar qatorida bastakorlik ijodi ham muhim o‘rin egallab kelgan.

Milliy musiqa tarixi shuni ko‘rsatadiki, har qanday yirik musiqiy tizimning shakllanishi va rivojlanishida bastakorlar faoliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maqom san’ati kabi murakkab musiqiy tizimlarning yuzaga kelishi va takomillashuvida bastakorlarning ijodiy izlanishlari muhim omil bo‘lgan.

Musiqashunos olim Abdurauf Fitrat milliy musiqa tarixi haqida fikr yuritar ekan, o‘zbek mumtoz musiqasini xalq ma’naviyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida baholaydi. Olimning “O‘zbek klasik musiqasi va uning tarixi” nomli risolasida ta’kidlashicha, milliy musiqiy merosni o‘rganish xalqning madaniy taraqqiyoti va tarixiy tafakkurini anglash imkonini beradi – “O‘zbek musiqasining asoslarini belgilash, uni tashkil etgan unsurlarni aniqlash, kechirgan davrlarni, butun sabablari bilan, ochiq ta’yin etish va natijada ob’ektiv, ilmiy xulosa chiqarish, o‘zimizdan olim – musiqashunoslar yetishmaguncha mumkin emas. Shu bilan baravar, bizda olim – musiqashunoslar yo‘q deb, milliy musiqa sohasida ilmiy va tarixiy tatabbu’otga kirishmasdan tura olmaymiz, mumkin bo‘lg‘an darajada bu sohada ishlash, to‘plang‘an va ishlangan ma’lumotlarni matbuotqa chiqarish lozimdir. Hozir to‘plang‘an materiallarda ilmiy usul yoqidan kamchiliklar bo‘lsa bo‘lur, lekin o‘z vaqtida to‘plangan bu materiallar kelgusidagi ilmiy ishlar uchun ko‘p yordam berur, biz bunga ishonamiz” [1, 3-b.].

Maqomlar xalq musiqasi negizida shakllangan yuksak kasbiy musiqa namunalari bo‘lib, ularning rivojlanishida bastakorlar faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Maqomlar asrlar davomida musiqiy ijodkorlar tomonidan takomillashtirilib kelingan murakkab badiiy tizimdir.

Bugungi kunda milliy musiqa madaniyatini o‘rganish, ayniqsa bastakorlik ijodi tarixini tadqiq qilish dolzarb ahamiyatga ega. Chunki globallashuv sharoitida milliy musiqiy merosni asrab-avaylash va uning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

XIV–XVI asrlar bastakorlik san’ati taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Bu davrda musiqa madaniyatining yuksalishi natijasida ko‘plab iste’dodli bastakorlar, sozandalar va xonandalar ijod qilganlar. Ularning faoliyati maqom san’atining mazmunan boyishi, shaklan takomillashishi hamda ijrochilik an’analarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Shuningdek, mazkur davrda yaratilgan musiqiy asarlar va bastakorlik an’analari keyingi asrlarda milliy musiqa san’atining taraqqiyoti uchun mustahkam zamin vazifasini bajardi.

“Bastakor” atamasi fors-tojik tilidagi “basta” va “kor” so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, lug‘aviy jihatdan “yaratuvchi”, “tuzuvchi”, “bog‘lovchi” ma’nolarini anglatadi. Musiqa san’atida esa mazkur atama musiqiy asarlarni yaratuvchi ijodkorga nisbatan qo‘llaniladi. Bastakor o‘tmishda turli vazifalarni bajargan. Dastlab u yangi, original kuy va ashulalar yaratuvchidir. Ikkinchidan, bastakor tayyor kuylar mavzuida ularning ritmik va kuy variantlarini ham yaratgan. Bunda bastakor kuy yo‘llariga yangi-yangi epizodlar, tayyor holdagi avjlar kiritgan. Ashula yo‘llariga yangi she’rlarni ustalik bilan bog‘lab, tushira bilgan san’atkorlar ham bastakor nomiga mansub bo‘lgan [2, 32-b.].

Sharq musiqiy madaniyatida bastakorlik tushunchasi Yevropadagi kompozitorlik san’atidan muayyan darajada farq qiladi. Agar Yevropa musiqasida asar yozma shaklda yaratilsa, Sharq musiqiy an’anasida musiqiy ijod ko‘pincha

og‘zaki tarzda shakllangan. Shu sababli bastakor nafaqat ijodkor, balki ijrochi va musiqiy bilimlarni saqlovchi shaxs sifatida ham faoliyat yuritgan.

O‘rta Osiyo xalqlari musiqiy madaniyati tarixida bastakorlik an’analari juda qadimiy ildizlarga ega. Qadimgi davrlardayoq musiqiy ijod jarayoni maxsus bilim va tajriba talab qiluvchi sohalardan biri sifatida shakllangan. Musiqiy ijod bilan shug‘ullangan shaxslar jamiyatda alohida maqomga ega bo‘lib, madaniy hayotning muhim ishtirokchilari hisoblangan.

Tarixiy manbalardan ma’lumki, Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz va Farg‘ona kabi madaniy markazlarda musiqiy ijodchilik yuqori darajada rivojlangan. Bu shaharlarda faoliyat yuritgan bastakorlar keyinchalik milliy musiqiy maktablarning shakllanishiga asos solganlar.

Sharq musiqiy madaniyati tarixida o‘rta asrlar muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda musiqiy nazariya va ijodchilikka bag‘ishlangan ko‘plab risolalar yaratilgan bo‘lib, ular keyingi musiqiy taraqqiyot uchun nazariy asos vazifasini bajargan.

Abu Nasr Forobiyning “Kitob al-musiqa al-kabir” asari Sharq musiqashunosligi tarixida muhim ahamiyat kasb etadi. Unda musiqiy tovushlar tizimi, ladlar va musiqiy shakllar haqida muhim nazariy fikrlar bayon qilingan. Forobiy musiqani inson ruhiyatiga ta’sir etuvchi muhim san’at turi sifatida baholagan [5, 23-32-b.].

Tabobat ilmining sultoni Ibn Sino ham musiqa nazariyasiga oid qator fikrlarni ilgari surgan. U musiqiy tovushlarning inson hissiyotiga ta’siri, musiqiy tuzilmalarning estetik xususiyatlari haqida muhim mulohazalar bildirgan [2, 17-18-b.].

Abdulqodir Marog‘iyning ilmiy merosi bastakorlik tarixi uchun alohida ahamiyatga ega. Uning asarlarida maqomlar, usullar va musiqiy ijod jarayonlari haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Marog‘iy tomonidan bayon qilingan nazariy

qoidalar keyingi asrlardagi bastakorlik ijodining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Marog'iy – zamonasining deyarli barcha diniy va dunyoviy ilmlarini egallagan, qomusiy ko'lamdagi shaxs. Olim qalamiga mansub "Zubdat ul-advor", "Maqasid ul-ilhon", "Jome' ul-alhon" va boshqa musiqa risolalari bugungi kunda ham o'zining ilmiy va amaliy ahamiyatini yo'qotgan emas. Bundan tashqari, u qur'on ilmini o'zlashtirgan mohir hofiz, maxsus diniy qo'shiqlar ijrochisi-guyanda, xilma-xil asboblarda ijro etadigan zabardast cholg'uchi, arab, fors va turkiy tillarda ijod qilgan shoir va turli janrlardagi musiqiy asarlarning muallifi bo'lgan. So'nggi sohada u shunday bir oliyjanob namunalar ijod qilganki, ularning shon-shuhrati bizning davrimizgacha saqlanib kelgan. Masalan, Marog'iy zamonida "miyatayn" (arabchada lug'aviy ma'nosi "ikki yuz") deyiladigan 200 usuldan iborat musiqiyning murakkab shakli joriy etilgan. Marog'iyning o'zi shunday bir "miyatayn" yaratganki, uning dovrug'i keyingi vaqtlarda ham pasaygan emas [5, 45-b.].

Mazkur risolalarda musiqiy asarlarni yaratish qoidalari, maqomlarning tuzilishi va ijodkorning vazifalari haqidagi fikrlar milliy bastakorlik maktablarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Maqom san'ati bastakorlik ijodining eng yuksak ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Maqomlar asrlar davomida xalq musiqiy tafakkuri va bastakorlar ijodiy faoliyati natijasida shakllangan murakkab badiiy tizimdir.

Maqomlarning tarixan uzoq taraqqiyot jarayonida Shashmaqom milliy hamda mintaqaviy ijodkorlik ila ijrochilik an'analarini o'zida mujassam etgan. Qolaversa, bularning izchil ravnaq topishidan dalolat bergan holda, qariyb biryarim ming yillik bastakorlar, hofizlar, sozandalar avlodlari san'atining barkamol mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Atoqli maqom allomasi Ishoq Rajabov Shashmaqom turkumini o'ziga xos "musiqiy qomus" deb ta'riflagani bejiz emas [7, 23-b.].

Maqomshunos olim Ishoq Rajabovning ta’kidlashicha, maqomlar xalq musiqiy merosi negizida shakllangan bo‘lib, ularning rivojlanishi xalq ijodi va kasbiy musiqa o‘rtasidagi uzviy aloqadorlikni namoyon etadi. Maqomlarning har bir qismi muayyan musiqiy qonun-qoidalar asosida yaratilgan bo‘lib, bu jarayonda bastakorlik mahorati muhim ahamiyat kasb etadi [2, 40-b.].

Otanazar Matyoqubov maqomotni yaxlit madaniy-tarixiy tizim sifatida baholab, uning shakllanishida jonli ijrochilik an’analari va ijodkorlik jarayonlarining muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, maqomlarning haqiqiy tabiatini anglash uchun ularning ijodiy va ijrochilik asoslarini chuqur o‘rganish zarur.

Maqom tizimidagi har bir kuy, ashula va cholg‘u yo‘li muayyan bastakorlik tafakkurining mahsuli hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, maqom san’ati va bastakorlik ijodi bir-biridan ajralmas tushunchalardir.

Mumtoz maqom turlari tarixan uzun taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tib, mintaqaviy, milliy, mahalliy ijodkorlik ila ijrochilik an’analarining muayyan uyg‘unligida ravnaq topganidan dalolat beradi. Shu jihatdan ham u o‘tmish, uzoq-yaqin zamonlar bastakorlik ijodiyotining qomusiy mahsuli tarzida namoyon bo‘lmoqda. Mashhur bastakorlar, hofiz va sozandalar asl maqom yo‘llarining ko‘plab ijodiy va ijroviy talqinlarini kashf etganlari asar nomlaridan ham ayon bo‘ladi. Tinglovchilar ehtiyojini inobatga olgan holda og‘zaki an’anada ovoz uchun, shuningdek, tanbur, surnay, dutor va boshqa, ko‘plab takomil milliy cholg‘ular vositasida maqom uslubiga mos ravishda bir qismli va turkumli namunalarda ijod qildilar [7, 12-b.].

Buxoro bastakorlik maktabi va uning tarixi

Bastakor – sozandalarning asrlar davomida maqom mavzularida kuy va ashulalar yaratib kelganliklari va hozirgi kungacha ham ular ta’sirida yoqimli va

ajoyib asarlar yaratayotganliklari maqomlarning xalq musiqa ijodiyotiga chuqur singib ketganini ko‘rsatadi [3, 274-b.].

O‘zbek mumtoz musiqasi tarixida Buxoro bastakorlik maktabi alohida o‘rin egallaydi. Buxoro azaldan ilm-fan, adabiyot va san’at markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, maqom san’atining yuksak darajada shakllanishi va rivojlanishida mazkur muhitning ahamiyati beqiyosdir.

Shashmaqom tizimining shakllanishi Buxoro musiqiy muhiti bilan chambarchas bog‘liq. Asrlar davomida faoliyat yuritgan bastakorlar, hofizlar va sozandalar maqomlarning musiqiy tuzilishini boyitish, yangi kuy va ashulalar yaratish orqali milliy musiqa madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shganlar.

Otanazar Matyoqubov ta’kidlaganidek, Buxoro maqom an’anasi nafaqat muayyan musiqiy tizim, balki keng madaniy-tarixiy hodisa sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, maqomlarning shakllanishi ko‘p asrlik ijodiy jarayonlar mahsuli hisoblanadi [4, 42-b.].

Buxoro bastakorlik muhitida ijod qilgan musiqachilar maqomlarning ichki qonuniyatlarini chuqur o‘zlashtirgan holda yangi musiqiy namunalar yaratganlar. Bu jarayonda maqomlarning lad xususiyatlari, usul tuzilmalari va ijroviy an’analari muhim ahamiyat kasb etgan.

Shashmaqom tarkibidagi “Buzruk”, “Rost”, “Navo”, “Dugoh”, “Segoh” va “Iroq” maqomlari asrlar davomida bastakorlar tomonidan takomillashtirilib kelingan. Har bir maqom tarkibidagi ashula va cholg‘u yo‘llari yuqori darajadagi musiqiy tafakkur mahsuli hisoblanadi.

Buxoro maktabida ijod qilgan bastakorlar faqat kuy yaratuvchilar emas, balki ijrochilik an’analarining saqlovchilari ham bo‘lganlar. Shu sababli mazkur maktab milliy musiqiy merosning shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Xorazm bastakorlik maktabi

O‘zbek musiqiy madaniyatining yana bir yirik markazi Xorazm hisoblanadi. Ushbu hududda shakllangan maqom va bastakorlik an’analari o‘zining boyligi va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Xorazm maqomlari Buxoro Shashmaqomidan ma’lum darajada farq qilsa-da, ularning umumiy tarixiy ildizlari mavjud. Ishoq Rajabov va Otanazar Matyoqubov tadqiqotlarida ham maqom tizimlarining umumiy manbalari haqida fikrlar bildirilgan.

Xorazm bastakorlari milliy musiqiy merosni saqlash va boyitishda muhim rol o‘ynaganlar. Ular xalq kuylari va maqom an’analarini o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda yangi musiqiy namunalar yaratganlar.

Xorazm maqomlarida ritmik harakatning jonliligi, kuy rivojining erkinligi va ijroviy bezaklarning boyligi alohida ahamiyatga ega. Bu xususiyatlar mazkur maktab bastakorlarining ijodiy qarashlarini yaqqol namoyon etadi.

Komiljon Otaniyozov, Bola baxshi, Ro‘zmat Jumaniyozov kabi san’atkorlar Xorazm musiqiy an’analarini saqlash va rivojlantirishga munosib hissa qo‘shganlar. Ularning ijodiy merosi bugungi kunda ham milliy musiqa madaniyatining muhim qismi hisoblanadi.

Xorazm bastakorlik maktabining muhim xususiyatlaridan biri og‘zaki an’analarning kuchli saqlanganligidir. Asrlar davomida musiqiy bilimlar ustozdan shogirdga og‘zaki ravishda yetkazilgan.

Farg‘ona-Toshkent bastakorlik maktabi

Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari o‘zining lirikligi, nafosati va xalqchilligi bilan ajralib turadi. Mazkur maktab o‘zbek milliy musiqasi taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi.

Farg‘ona vodiysi azaldan musiqiy madaniyat rivojlangan hududlardan biri hisoblangan. Bu yerda shakllangan maqom yo‘llari xalq qo‘shiqchiligi bilan chambarchas bog‘liq holda taraqqiy etgan.

Farg‘ona-Toshkent maktabida bastakorlar xalq ohanglarini maqom uslublari bilan uyg‘unlashtirishga alohida e’tibor qaratganlar. Natijada yuqori badiiy qimmatga ega bo‘lgan ko‘plab ashula va cholg‘u asarlari yaratilgan.

Mazkur maktabning rivojlanishida Yunus Rajabiyning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. U nafaqat yirik ijrochi va olim, balki milliy musiqiy merosni saqlash va targ‘ib qilishga ulkan hissa qo‘shgan ijodkor sifatida ham qadrlanadi.

XX asr o‘zbek bastakorlik san’atining taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan davr hisoblanadi. Bu davrda faoliyat yuritgan To’xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Faxriddin Sodiqov, Orifxon Hotamov va Fattohxon Mamadaliev kabi yirik ijodkorlar milliy musiqa merosini asrab-avaylash, uni boyitish va kelgusi avlodlarga yetkazish yo‘lida ulkan xizmat ko‘rsatdilar.

Ushbu bastakorlarning faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, ularning eng katta yutuqlaridan biri maqom yo‘llarining an’anaviy xususiyatlarini saqlagan holda ularni zamon talablari asosida rivojlantirganliklarida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llariga mansub ayrim asarlarning qayta tiklanishi, musiqiy jihatdan takomillashtirilishi va ijro amaliyotiga qayta kiritilishida ularning xizmatlari beqiyosdir.

Shu bilan bir qatorda, mazkur ijodkorlar maqom an’analariga tayangan holda yangi bastakorlik asarlarini yaratib, milliy musiqa san’atining janr va uslub jihatidan yanada boyishiga munosib hissa qo‘shdilar. Ular tomonidan yaratilgan asarlarda an’anaviy maqom ohanglari bilan zamonaviy badiiy tafakkurning uyg‘unligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ushbu bastakorlarning yana bir muhim xizmati ustoz-shogird an’anasini izchil davom ettirganliklarida ko‘rinadi. Ular o‘z bilim va tajribalarini yosh avlodga

yetkazib, milliy ijrochilik hamda bastakorlik maktabining uzluksiz rivojlanishiga mustahkam zamin yaratdilar. Bu esa Farg‘ona–Toshkent maqom yo‘llarining ijrochilik an’analarini saqlab qolish va keng ommalashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

Shu bois, ushbu bastakorlarning ijodiy merosini chuqur o‘rganish, ularning musiqiy qarashlari va bastakorlik uslubini ilmiy asosda tahlil qilish bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Zero, ularning ijodiy tajribasi milliy bastakorlik san’atining kelgusi taraqqiyoti uchun muhim manba va ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Ustoz-shogird an’anasi va bastakorlik ijodi

Bastakorlik san’atining saqlanishi va rivojlanishida ustoz-shogird an’anasi muhim ahamiyat kasb etadi. Sharq musiqiy madaniyatida musiqiy bilimlarning asosiy qismi og‘zaki tarzda avloddan-avlodga o‘tib kelgan.

Maqom san’atining haqiqiy mohiyatini anglash uchun jonli ijrochilik an’analarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Ustozlar o‘z shogirdlariga nafaqat kuy va ashulalarni, balki musiqiy tafakkurni ham o‘rgatganlar.

Ustoz-shogird munosabatlari milliy musiqa madaniyatida o‘ziga xos ta’lim tizimini shakllantirgan. Bu tizim orqali maqomlar, xalq kuylari va bastakorlik an’analari saqlanib qolgan.

Bugungi kunda ham mazkur an’ananing davom ettirilishi milliy musiqiy merosni saqlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

XX asr o‘zbek musiqa madaniyati tarixida tub burilishlar davri bo‘ldi. Bu davrda milliy musiqiy merosni yig‘ish, tadqiq qilish, notaga olish va ilmiy asosda o‘rganish ishlari keng ko‘lamda amalga oshirildi. Natijada asrlar davomida og‘zaki an’ana asosida yashab kelgan ko‘plab musiqiy namunalar saqlab qolindi.

Milliy musiqa san’atining rivojlanishida Yunus Rajabiyning xizmatlari alohida ahamiyat kasb etadi. U tomonidan Shashmaqom namunalarining yig‘ilishi,

tizimlashtirilishi va notaga olinishi o‘zbek musiqashunosligi tarixida muhim voqea bo‘ldi. Bu ishlar keyingi tadqiqotlar uchun mustahkam ilmiy zamin yaratdi.

Ustoz san’atkorning tahsinga sazovor mehnati tufayli asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan, biroq muayyan siyosiy mafkuraviy sabablarga ko‘ra yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan musiqiy merosimiz saqlab qolindi [6, 7-b.].

XX asr davomida milliy bastakorlik an’analari yangi shakl va mazmun bilan boyidi. An’anaviy musiqa bilan zamonaviy ijodiy yondashuvlar uyg‘unlashib, yangi musiqiy asarlar yaratila boshladi. Bu jarayon milliy musiqaning hayotiyligini ta’minladi va uning yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qildi.

Faxriddin Sodiqov, To‘xtasin Jalilov, Mutal Burxonov, Manas Leviev, Saidjon Kalonov kabi ijodkorlar milliy musiqa an’analarini zamonaviy shakllarda rivojlantirishga munosib hissa qo‘shdilar. Ular xalq musiqasi va maqom an’analarini saqlagan holda yangi musiqiy asarlar yaratdilar.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy madaniy merosni tiklash va rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu jarayon musiqa san’ati rivojiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Mustaqillik yillarida milliy musiqiy merosni o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Maqom san’ati, xalq ijodi va bastakorlik an’analariga bag‘ishlangan kitoblar, monografiyalar va ilmiy maqolalar nashr etildi.

Shashmaqom, Xorazm maqomlari hamda Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarini tiklash va rivojlantirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Maqom san’ati festivallari, ilmiy anjumanlar va ijodiy uchrashuvlar milliy musiqiy merosni ommalashtirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda milliy bastakorlik ijodi an’anaviy va zamonaviy yo‘nalishlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida rivojlanmoqda. Zamonaviy bastakorlar milliy musiqaning boy imkoniyatlaridan foydalanib, yangi musiqiy asarlar yaratmoqdalar.

Zamonaviy bastakorlik ijodining muhim xususiyatlaridan biri milliy an’analarga tayanish hisoblanadi. Milliy musiqiy meros, ayniqsa maqom san’ati, zamonaviy ijodkorlar uchun muhim ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bastakorlar o‘z asarlarida milliy ladlar, usullar va intonatsiya xususiyatlaridan keng foydalanmoqdalar. Bu esa milliy musiqiy tafakkurning uzluksizligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy ijod jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bastakorlik ijodi milliy madaniyatni rivojlantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bastakorlik ijodi o‘zbek milliy musiqa madaniyatining shakllanishi va taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan. Bastakorlik san’ati xalq musiqiy tafakkurining yuksak namunasi sifatida maqomlar, xalq kuylari va mumtoz musiqiy asarlarning yaratilishi hamda saqlanishida hal qiluvchi rol o‘ynagan.

Bastakorlik ijodini ilmiy o‘rganish natijasi quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

Birinchidan, bastakorlik an’analari O‘rta Osiyo xalqlarining ko‘p asrlik musiqiy madaniyati negizida shakllangan bo‘lib, uning rivojlanishida maqom san’ati muhim omil bo‘lgan.

Ikkinchidan, Buxoro, Xorazm va Farg‘ona-Toshkent musiqiy muhitlari milliy bastakorlik maktablarining shakllanishiga asos bo‘lgan va ular milliy musiqiy merosning boyishiga xizmat qilgan.

Uchinchidan, ustoz-shogird an’anasi bastakorlik ijodining saqlanishi va avloddan-avlodga o‘tishida muhim ahamiyat kasb etgan.

To‘rtinchidan, XX asr va mustaqillik davrida milliy musiqiy merosni o‘rganish, saqlash va targ‘ib qilish borasida amalga oshirilgan ishlar bastakorlik san’atining yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilgan.

Beshinchidan, zamonaviy bastakorlik ijodi milliy an'analar va zamonaviy musiqiy tafakkurning uyg'unligi asosida rivojlanib bormoqda.

Shuning uchun milliy bastakorlik merosini ilmiy jihatdan tadqiq qilish, uning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganish va yosh avlodga yetkazish musiqashunoslik fanining muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Toshkent, 1993.
2. Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent, 2006.
3. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – Toshkent, 1963.
4. Matyoqubov O. Maqomat. – Toshkent, 2004.
5. Oripov Z. Sharq musiqiy manbashunosligi (X–XI asrlar). – Toshkent, 2008.
6. Ibrohimov O. «Yunus Rajabiy haqida so'z» // «Jahon adabiyoti» jurnali. – 2017. – 1-son.
7. Yunusov R. O'zbek maqomlari. – Toshkent, 2018.

References

1. Fitrat, A. *O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi* [Uzbek Classical Music and Its History]. Toshkent, 1993. (in Uzbek)
2. Rajabov, I. *Maqomlar* [Maqoms]. Toshkent, 2006. (in Uzbek)
3. Rajabov, I. *Maqomlar masalasiga doir* [On the Issue of Maqoms]. Toshkent, 1963. (in Uzbek)
4. Matyoqubov, O. *Maqomat* [Maqomat]. Toshkent, 2004. (in Uzbek)
5. Oripov, Z. *Sharq musiqiy manbashunosligi (X–XI asrlar)* [Eastern Music Source Studies (10th–11th Centuries)]. Toshkent, 2008. (in Uzbek)
6. Ibrohimov, O. "Yunus Rajabiy haqida so'z" [A Word about Yunus Rajabiy]. *Jahon adabiyoti* [World Literature], no. 1 (2017). (in Uzbek)
7. Yunusov, R. *O'zbek maqomlari* [Uzbek Maqoms]. Toshkent, 2018. (in Uzbek)